



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ROLI**

Gulchehra Ibraximovna Xamraeva

Buxoro davlat universiteti ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Zebiniso Ibrohimovna Bafoyeva

Buxoro shahar 6-IDUM oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Marjona Maxsud qizi Maxmudova

Buxoro shahar 6-son IDUM 2-toifali fizika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882364>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limgarjarayonida o'quvchilarga bilim berishda, ta'limgarjamaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida interfaol ta'limgarjtexnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, va afzalliklari tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, interfaol ta'limgarjtexnologiyalar, an'anaviy ta'limgarj, innovatsion ta'limgarj, o'qituvchi - o'quvchi - o'quvchilar guruhi, ta'limgarjamaradorligi

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'limgarj mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishiga, ta'limgarj tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi, ya'ni shu vaqtgacha an'anaviy ta'limgarj o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, endilikda zamonaviy texnologiyalar asosida ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol ta'limgarj- ta'limgarj samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan innovatsion ta'limgarj turi va o'qitish shakli sanaladi, ya'ni interfaol ta'limgarj - o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'limgarj bo'lib, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.



Mohiyatiga ko'ra interfaollik o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatsa,

mantiqiy nuqtai nazardan ijtimoiy sub'ektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi har bir o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyati shaklini almashtirib turish, diqqatini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Umumta'lismaktablarida dars jarayonida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, uning bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi.

Ma'lumki, **interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari** – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "**o'qituvchi - o'quvchi - o'quvchilar guruhi**" ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimi munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- ♦ belgilangan maqsadning vazifalarni hal etish uchun mosligi;
- ♦ usulni qo'llashning soddaligi va osonligi;
- ♦ eng yaxshi natijalarni ta'minlashi va ularning kafolatini ta'minlay olishi.

O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Dars jarayonida turli interfaol metodlar - **aqliy hujum, klaster, Venn diagrammasi, insert, bahs-munozara, toifalash jadvali, keys topshiriqlari, loyiha ishi, debat** kabilardan foydalananish o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi, ammo interfaol usullar asosida mashg'ulotlarni o'tkazish o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni, shuningdek, quyidagilarga e'tibor berish kerakligini talab qiladi:

- ♦ Qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.
- ♦ Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'uoltadan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
- ♦ O'quvchilarning mustaqil ishslashlari uchun qancha vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Odatda interfaol ta'limgan texnologiyalarga asoslangan ta'limiylar - individual tarzda, juftliklarda, guruhlarda hamda jamoa bilan ishlash shakllarida tashkil etiladi. Shuning uchun ta'limgan tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun o'qituvchilar quyidagi tamoyillarga tayanishlari zarur:

- ♦ Ta'limgan jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi;
- ♦ O'quvchilarning mashg'uoltarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish;
- ♦ O'quvchilar sonining ko'p bo'lmasligi va o'quv xonasining jihozlanishi;
- ♦ Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;
- ♦ O'quvchilarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi;

Har qanday ta'limgan maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir, shuning uchun ta'limgan jarayoni samaradorligini oshirish, ta'limgan oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va





THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlashda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Interfaol ta'lim texnologiyalarining an'anaviy ta'lim texnologiyalardan afzalligi shundaki,

- ♦ dars jarayonida o'quvchi muntazam faol fikrlash jarayonida bo'ladi va vaqt unumli o'tadi;
- ♦ o'quvchi biladigan va bilmaydigan, shubha ostiga olganlarini o'zi ajratib o'qiganini kuzatadi, bu esa uning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- ♦ o'quvchilarga erkin munozaraga kirib, nuqtai nazarini bosiqlik bilan aytish va bahs etish madaniyatini o'rgatadi. O'zgalar fikrini tinglash, hurmat qilishga chorlaydi;
- ♦ o'quvchining o'zi axborotlarni tahlil qilishga, o'z fikrini to'liq bayon eta olishga, ma'lumotlarni qiyoslab o'rganishga, ma'lumotlardagi o'ziga xos va umumiyl jihatlarni tahlil qilish, shuningdek, o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq yaratilgan muammoli vaziyatda muammoni to'liq tushunib, uni hal eta olishga o'rganadi;

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirishda, o'qitish jarayonida o'quvchilar faolligini va kommunikativ ko'nikmalarini o'stirishda, ularning mustaqil, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda fan o'qituvchisining innovatsion faoliyatini shakllantirilishi, dars jarayonida interfaol metodlardan oqilona foydalana olish mahoratiga ega bo'lishi asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadaliev A. M. Qosimov A. X. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar - Toshkent, 2006
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalar - Buxoro. Matbaa, 2001.
3. Ziyomuxammedov B, Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot uslubiy qo'llanma T. Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, 2001
4. Khamraeva G. (2021). Таълим жараёнида инновацион таълим технологияларини қўллашнинг аҳамияти. Центр научных публикаций (buxdu.Uz).

http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2583



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

CERTIFICATE

CONFERENCE PARTICIPANT



Gulchehra Ibraximovna Xamraeva

**FOR PARTICIPATION IN THE SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE «THEORETICAL ASPECTS IN THE
FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES»
WITH AN ARTICLE ENTITLED**

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI ROLI**



30.04.2023

DATE



GREAT BRITAIN